O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori v.v.b.
Z.Ya.Raxmanov
_____
«____»_____2026- yil

« MA’QULLANDI »
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK raisi
A.T. Yusupov
_____
«____»_____2026-yil

19.00.05 – «Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya» ixtisosligi bo’yicha malakaviy imtihon
D A S T U R I

O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2026- yil «____»_____ ____-sonli qarori bilan tasdiqlangan

TOSHKENT – 2026

ANNOTATSIYA

“Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” ixtisosligidan malakaviy imtihon qabul qilish dasturi O’zbekiston Respublikasining “Ta`lim to’g’risida” Qonuni hamda psixologiya fanini rivojlantirishga oid mavjud me`yoriy hujjatlar asosida yaratilgan bo’lib, psixolog kadrlar tayyorlash tizimining muhim tarkibiy qismidir. Uning asosiy maqsadi – ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya ixtisosligi bo’yicha talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini uning ushbu fan shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiy kontseptsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, shu bilimlar tarmog’ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog’lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganligini ko’rsatib berishi lozim.

Tuzuvchilar: psixol.f.d., prof. V.M.Karimova
psixol.f.d., prof. D.U.Abdullayeva

Taqrizchi: psixol.f.d., prof. D.S.Karshiyeva
psixol.f.d., dots. Sh.Sh.Ostonov

Ushbu dastur universitet Ilmiy-texnik kengashining 2026- yil 6- yanvardagi 1-sonli majlisida tasdiqlangan.

SO’Z BOSHI

Bugungi kunda shaxs shakllanishida jamiyat, etnik guruhning ta`siri masalalarini tadqiq etish dolzarb ahamiyatga egadir. Chunki shaxs va jamiyatning o’zaro ikki tomonlama ta`siri ijtimoiy taraqqiyot hamda shaxs ijtimoiy-psixologik qiyofasining muhim jihati hisoblanadi.

Ijtimoiy psixologiyaga oid savollar orqali talabgorlarning ijtimoiy- psixologik fenomenlar mohiyati, vujudga kelish mexanizmlari, ularga ta`sir ko’rsatish va ularni boshqarish tamoyillari, fan sohasining asosiy muammolarini tushunish, ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlarning bosh yo’nalishlari haqida Yetarlicha tasavvurga ega bo’lish bobidagi bilimlari darajasining tekshirilishi ko’zda tutiladi. Bunda ixtisoslik tarkibidagi ikki fan sohasi bo’yicha quyidagi mavzuviy yo’nalishlarda talabgorlar bilimining tekshirilishi rejalashtiriladi.

Etnopsixologiya sohasi talabgorning etnik guruhlardan xalq, millatning shaxs shakllanishiga ta`siri, etnik mansublikning shaxs psixologik qiyofasiga ta`siri, etnik tadqiqotlarni tashkillashtirishning o’ziga xos jihatlari haqidagi bilimlarni aniqlaydi. Shaxsning shakllanishini etnopsixologik xususiyatlar, gender jihatlar bilan bog’liqligi to’g’risida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beruvchi bilimlar tizimini tekshirishni ko’zda tutadi.

Dastur ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya borasidagi qarashlarning o’zaro bog’liq jihatlarini bayon etishga mo’ljallangan. Ijtimoiy psixologik fikr rivojlanishini izchil o’rganish bo’lg’usi mutaxassislarga hozirgi davrda o’tmishning ilg’or psixologiyasini uzviy davomi ekanligini ko’rsatish kelajak psixologik fikrlar taraqqiyoti yo’nalishlarini anglab olishga yordam beradi.

“Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” ixtisosligi bo’yicha dasturning maqsad va vazifalari: talabgorlarning ijtimoiy psixologiyaning rivojlanish tarixi, ijtimoiy psixologik tadqiqotda qo’llaniladigan metodlar, shaxs va jamiyat munosabatlarining shaxs taraqqiyotiga ta`sir etishining o’ziga xos jihatlarini tadqiq etish; ijtimoiy-psixologik tamoyillarni tadqiq etish; Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy psixologik qarashlarini bilish; ijtimoiy psixologik tamoyillar, guruh va shaxs munosabatlari, guruhni boshqarish, liderlik masalalari bo’yicha bilimga ega bo’lish hamda ularni amaliyotda qo’llay olishga o’rgatishdan iborat.

“Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fanidan bilim va ko’nikmalarga qo’yiladigan talablar:

mazkur ixtisoslikni o’rganish jarayonida quyidagi tushunchalarni bilish va ko’nikmalarga ega bo’lish zarur:

- ijtimoiy psixologiyaning ilmiy bilimlar tizimidagi o’rni, ijtimoiy-psixologik g’oyalarning shakllanish trixi;
- muloqot va shaxslararo munosabatlarning psixologik qonuniyatlari;
- kichik va katta guruhdagi ijtimoiy-psixologik hodisalar;
- shaxsni tadqiq etishning ijtimoiy-psixologik muammolari;
- ijtimoiy psixologiyaning tadbiqiy muammolari, tadbiqiy tadqiqotlarning asosiy yo’nalishlari.
- etnopsixologiyaning bilim sohasi sifatidagi tavsifi va shakllanish tarixi;
- shaxs etnik fenomen sifatida, shaxs va etnos, shaxs va etnomadaniy qadriyatlar;
- etnik guruhlararo munosabatlarning psixologik muammolari;
- etnik identifiktsiya, uning shakllanishi va transformatsiyasi;
- etnopsixologik tadqiqotlarning ahamiyati va asosiy muammolari yuzasidan bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lishi zarur.

Talabgor “Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” fanini o’rganish davomida ijtimoiy psixologik qarashlarni, shaxs va guruh munosabatlarini, muloqot muammosi, liderlik masalalariga oid qarashlarni tahlil qilish, ilmiy-amaliy farazlarni muayyan kontseptual qarashlar

asosida tizimlashtira olishi hamda amaliy, ilmiy tadqiqot topshiriqlarini bajarish ko'nikmasini namoyon eta olishlari zarur.

Talabgorning Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligidan o'rganilishi zarur bo'lgan minimum bilimlar mazmuni.

1. Ijtimoiy psixologiya predmeti haqida XX asr 20-yillaridagi bahs-munozaralar; XX asr 50-60 yillarida ijtimoiy psixologiya predmeti haqidagi bahs-munozaralar ikkinchi bosqichi haqida; ijtimoiy psixologiyaning fanlar tizimidagi o'rnini aniqlashga nisbatan turli xil yondoshuvlar.

2. Etnos odamlarning psixologik uyushmasi sifatida; madaniyat psixologik tushuncha sifatida; etnopsixologiya fan sifatida.

3. Ilk ijtimoiy psixologik kontseptsiyalarda shaxs muammosi; XX asr o'rtalarida shaxs ijtimoiy psixologiyasi muammolariga munosabat; shaxs ijtimoiy psixologiyasi mustaqil fan tarmog'i sifatida shakllanishining asosiy muammolari.

4. Ijtimoiy psixologiyaning shakllanishini ta`minlagan asosiy shart-sharoitlar; ijtimoiy-psixologik bilimning ilk tarixiy shakllari; ijtimoiy psixologiya taraqqiyotida eksperiment metodi keng joriy etilgan davr.

5. Bilish jarayonlari sohasidagi etnopsixologik tadqiqotlar tarixidan; ko'rish illyuziyalari va madaniyat; rangni idrok etishda va kategoriyalashda madaniy o'ziga xoslik; intellekt testlardan foydalanishning etnopsixologik muammolari.

6. Ijtimoiylashuv tushunchasi; ijtimoiylashuv madaniyatni o'zlashtirish, internaliztsiya va adaptatsiya jarayoni sifatida; ijtimoiylashuv ijtimoiy voQelikni konstruktsiyalash sifatida; ijtimoiylashuv muammosini o'rganishning asosiy yo'nalishlari.

7. Miqdoriy natijalarni birlamchi qayta ishlash metodlari (o'lcham bo'yicha tartiblash, rang bo'yicha tizimlashtirish, guruhlashtirish, chastotalar taqsimoti).

8. Metodologik muammolarni zamonaviy fan uchun ahamiyati; "Metodologiya" tushunchasi qo'llaniladigan ilmiy yondoshuvning uch darajasi; ijtimoiy psixologiyada ilmiy tadqiqotning o'ziga xosligi; ijtimoiy psixologiya metodlarining umumiy tavsifi.

9. Etnopsixologiyada bazaviy va modal shaxs muammosi; milliy xarakter va mentallik muammosi; etnopsixologiya nuqtai nazaridan shaxsdagi me`yoriy va patologik holatlarga munosabat.

10. Ijtimoiy xarakter haqidagi tasavvurlarning vujudga kelishi (R.Merton, E.Fromm, R.Linton va b.); ijtimoiy xarakter va modal (asosiy) shaxs; avtoritar shaxs nazariyasi (T.Adorno); ijtimoiy psixologiyada shaxs tiplari.

11. Kommunikatsiya jarayonida axborot almashishning o'ziga xos xususiyatlari; axborot turlari; komunikatsiya vositalari; noverbal kommunikatsiya.

12. Etnotsentrizm ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida; etnik stereotiplar va stereotipiztsiya jarayoni; etnik stereotiplarning asosiy xususiyatlari; ijtimoiy kauzal atributsiya.

13. Oila kichik guruh sifatida; oilaning bola psixik rivojlanishiga ta`sir ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlari; oilaviy nizolar va bolaning ijtimoiylashuvi muammosi; oilada jinsiy rollar bilan bog'liq stereotiplar translyatsiyasi.

14. Muloqotda o'zaro ta`sirlashuvning o'rni; o'zaro ta`sir turlari; "ramziy interaktsionizm" nazariyasida o'zaro ta`sir muammosiga bo'lgan yondoshuv; o'zaro ta`sir hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish sifatida.

15. Madaniyatning regulyativ vazifasi; individualizm va kollektivizm muammosi; madaniy qadriyatlarning regulyator imkoniyatlari; uyat va aybdorlik hislari ijtimoiy nazorat mexanizmlari sifatida; konformlik individning guruhdagi hulq-atvori regulyatori sifatida.

16. Ijtimoiy ustanovka tushunchasi; ijtimoiy ustanovkaning tuzilishi va tarkib topishi; ijtimoiy ustanovkalarning o'zgarishi muammosi.

17. Ijtimoiy pertseptsiya tushunchasi; muloqotda odamlarning bir-birini tushunish mexanizmlari; ijtimoiy pertseptsiya jarayonida ilk taassurot, oreol, yangilik effektlari, streotipizatsiya va kauzal atributsiya, atraktsiya hodisalari.

18. Etnik migratsiya va akkulturatsiya psixologiyasi; madaniy shok muammosi; yangi milliy-madaniy muhitga moslashish jarayoniga ta`sir ko'rsatuvchi psixologik omillar; madaniyatlararo ta`sirlashuvning individ va guruh uchun oqibatlari.

19. Zamonaviy OAV ning asosiy xususiyatlari; OAV ning omma ongiga ta`sir ko'rsatish imkoniyatlari; OAV ning informatsion psixologik kurash quroli sifatidagi tavsifi; internet addiktsiya muammosi.

20. Kichik guruh tushunchasi hamda chegaralar; kichik guruhlar tasnifi; ijtimoiy psixologiya tarixida kichik guruhlarni o'rganishning asosiy yo'nalishlari; kichik guruhlardagi dinamik jarayonlar.

21. Inkulturatsiya va madaniy transmissiya tushunchalari; madaniyatning bola psixik rivojlanishiga ta`siri; bolalik rivojlanishiga ta`siri; bolalik etnografiyasi; initsiatsiya muammosi; turli etnomadaniy muhitlarda ijtimoiylashuvning o'ziga xos kechishi.

22. "Men" kontseptsiya tushunchasi, shakllanish mexanizmlari va shakllanishiga ta`sir ko'rsatuvchi omillar; "Men" kontseptsiyaning tarkibiy tuzilishi; "Men" kontseptsiya o'zgaruvchanligi va barqarorligi.

23. Stixiyali guruhlarning umumiy tavsifi va tiplari; stixiyali guruhlarda o'zaro ta`sir usullari va yo'llari; olomon tarkibida inson xulq-atvorining xususiyatlari; katta diffuz guruhlarda ro'y beruvchi ommaviy hodisalar; ijtimoiy harakatlarning psixologik muammolari.

24. Etnik guruhlararo munosabatlarning psixologik determinantlari; etnik identifikatsiyaning asosiy komponentlari; til va boshqa etnodifferentsiatsiyalovchi alomatlar. Etnik identifikatsiya haqida tushuncha; etnik identifikatsiyaning shakllanish bosqichlari; polietnik va monoetnik muhitda etnik identifikatsiyani o'lchash modellari.

25. Yangi axborot texnologiyalarning ijtimoiylashgan ta`siri; internet-kommunikatsiya muammolarini o'rganishga ijtimoiy-psixologik yondoshuv; internet va ijtimoiy idenfikatsiya muammosi; virtual psixologiya haqida tushuncha; axborot ta`sirida ijtimoiy ustanovkalarning o'zgarishi.

26. Liderlik va rahbarlik haqida tushuncha; liderlik vujudga kelishi haqidagi nazariy qarashlar; liderlik turlari va uslublari; guruhiy qaror qabul qilish jarayoni; guruhiy faoliyat samaradorligi.

27. Ijtimoiy xulq-atvor va uning regulyatorlari haqida umumiy tushuncha; shaxs qadriyatlar oriyentatsiyasining ijtimoiy xulq-atvor boshqaruvidagi ahamiyati; deviant va delikvent xulq-atvor haqida umumiy tushuncha; ijtimoiy me`yorlarning regulyatorlik vazifasi.

28. Guruh va jamoa tushunchalarining o'zaro farqi; "guruh ijtimoiylashuvi" haqidagi tasavvurlar (R.Morlend, Dj Livayin); ijtimoiy psixologiyada T-guruh muammosi; jamoaning psixologik nazariyasi; guruhning rivojlanish bosqichlari va darajalari (jamoaning psixologik nazariyasi bo'yicha); guruhdagi psixologik iqlim muammosi.

29. Kommunikatsiyaning madaniy muhit xususiyatlariga bog'liqligi; ekspressiv xulq-atvor va madaniyat; muloqotda proksemika va uning etnomadaniy xususiyatlar bilan bog'liq jihatlari; kauzal atributsiya sohasida etnopsixologik farqlar.

30. Shaxsning ijtimoiy rollari va ularning bajarilishi; ijtimoiy rol va shaxsning o'zaro ta`sirlashuvi; ijtimoiy me`yorlarning shaxsga ta`siri; referent guruhlar va shaxs.

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha imtihon savollari:

1. Ijtimoiy psixologiyaning predmeti va tadqiqot ob'ekti haqidagi zamonaviy ilmiy qarashlarni keltiring.
2. Etnopsixologiya — fanlararo integrativ bilim sohasi sifatida tahlil qiling.
3. Shaxs ijtimoiy psixologiyasi: mustaqil tadqiqot sohasi sifatida shakllanishi va rivojlanish tendensiyalarini ko'rsating.
4. Psixologik tadqiqotlarda o'lchov shkalalari: nazariy asoslar va amaliy qo'llanish imkoniyatlarini tushuntiring.
5. Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tushuntiring.

6. Ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda kross-madaniy yondashuvning ilmiy ahamiyatini tushuntiring.
7. Shaxsning ijtimoiylashuvi muammosi va uni o‘rganishning zamonaviy yo‘nalishlari ko’rsating.
8. Xalqlar psixologiyasi: tarixiy shakllanishi va hozirgi tadqiqot muammolarini tahlil qiling.
9. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning metodologik muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llarini tushuntiring.
10. Shaxsni o‘rganishning etnopsixologik muammolari: madaniyatlararo taqqoslash yondashuvlarini ko’rsating.
11. Ijtimoiy psixologiyaning predmeti va tadqiqot ob’ekti haqidagi zamonaviy ilmiy qarashlarni tushuntiring.
12. Etnopsixologiya — fanlararo integrativ bilim sohasi sifatida tahlil qiling.
13. Shaxs ijtimoiy psixologiyasi: mustaqil tadqiqot sohasi sifatida shakllanishi va rivojlanish tendensiyalarini ko‘rsating.
14. Psixologik tadqiqotlarda o‘lchov shkalalari: nazariy asoslar va amaliy qo‘llanish imkoniyatlarini tahlil qiling.
15. Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tahlil qiling.
16. Ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda kross-madaniy yondashuvning ilmiy ahamiyatini tushuntiring.
17. Shaxsning ijtimoiylashuvi muammosi va uni o‘rganishning zamonaviy yo‘nalishlarini tushuntirib bering.
18. Xalqlar psixologiyasi: tarixiy shakllanishi va hozirgi tadqiqot muammolarini tahlil qilib bering.
19. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning metodologik muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llarini tahlil qiling.
20. Shaxsni o‘rganishning etnopsixologik muammolari: madaniyatlararo taqqoslash yondashuvlarini ko‘rsating.
21. Ijtimoiy persepsiya jarayoni va ijtimoiy-perseptiv fenomenlarning mazmunini tahlil qiling.
22. Yangi madaniy muhitga moslashishning psixologik omillarini tushuntiring.
23. Ommaviy kommunikatsiyaning psixologik xususiyatlari va muammolarini tahlil qiling.
24. Regression va korrelyatsion tahlil — ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda qo‘llaniladigan statistik metodlarning qo‘llanish imkoniyatlarini tushuntiring.
25. Ijtimoiy psixologiyada kichik guruh fenomeni va uning tadqiq etilish muammolarini tahlil qiling.
26. Ijtimoiylashuv jarayonida etnomadaniy o‘ziga xoslikning namoyon bo‘lish mexanizmlarini ko‘rsating.
27. “Men” konsepsiyasi shaxsning ijtimoiy taraqqiyotida shakllanuvchi psixologik konstrukt sifatida tahlil qiling.
28. O‘zgaruvchilarni statistik qiyosiy tahlil qilishning psixologik mezonlarini ko‘rsating.
29. Stixiyali guruhlar va ommaviy harakatlar: ijtimoiy-psixologik tahlilini keltiring.
30. Etnik guruhlararo munosabatlar va ularning kognitiv asoslarini tahlil qiling.
31. Shaxs va zamonaviy axborot muhiti: ijtimoiy-psixologik o‘zaro ta’sir jihatlarini tushuntiring.

32. Muloqot jarayonining asosiy tomonlari va ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qiling.
33. Kichik guruhlarda liderlik va boshqaruv muammolarini tahlil qiling.
34. Etnik identifikatsiyaning rivojlanish va transformatsiya bosqichlarini tahlil qiling.
35. Shaxs xulq-atvorining me’yoriy boshqaruvi va deviant xulq muammosini tushuntiring.
36. Muloqotning interaktiv tomoni va uning psixologik mexanizmlarini tahlil qiling.
37. Guruh taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarini tushuntiring .
38. Muloqotning universal va madaniy jihatdan o‘ziga xos tomonlarini tahlil qiling.
39. Shaxsning guruhdagi xulq-atvori va ijtimoiy faoliyatining psixologik xususiyatlarini tahlil qiling.
40. Ijtimoiy-psixologik kompetentlik: mazmuni, tarkibi va rivojlanish shartlarini ko‘rsating.
41. Ijtimoiy muhit va o‘z-o‘zini anglash masalasini yoritib bering.
42. Omma psixologiyasi va ijtimoiy ta’sir mexanizmlarini tushuntirib bering.
43. Boshqaruv uslublari va ularning ijtimoiy-psixologik tahlilini amalga oshiring.
44. Guruhni boshqarishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini tushuntiring.
45. Millatlar psixologiyasi: nazariy asoslar va zamonaviy tadqiqotlarni tushuntiring.
46. Milliy xarakter fenomeni va uni shakllantiruvchi psixologik omillarni ko’rsating.
47. Gender tadqiqotlarida milliy xususiyatlarning inobatga olinishini tushuntiring.
48. O‘zbekistonda etnopsixologik tadqiqotlarning shakllanishi va rivojlanish tarixini tahlil qiling.
49. V.M. Karimovaning ijtimoiy-psixologik qarashlari va ilmiy merosini tushuntirib bering.
50. Muloqotda identifikatsiya mexanizmlari va ularning psixologik mazmuni yoritib bering.
51. Ijtimoiy-psixologik persepsiya: nazariy yondashuvlar va empirik tadqiqotlarni tahlil qiling.
52. Zamonaviy ommaviy axborot vositalarining psixologik xususiyatlarini tushuntirib bering.
53. OAVning omma ongiga va ijtimoiy fikrga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini ko’rsating.
54. OAVning informatsion-psixologik kurash vositasi sifatidagi o‘rnini tahlil qiling.
55. Internet addiksiya: zamonaviy jamiyatdagi psixologik muammo sifatida tahlil qiling.
56. Kichik guruh tushunchasi va uning ijtimoiy-psixologik chegaralarini ko’rsating.
57. Kichik guruhlar tasnifi va ularni o‘rganish yondashuvlarini tahlil qilib bering.
58. Ijtimoiy psixologiya tarixida kichik guruhlarni tadqiq etish yo‘nalishlarini tahlil qilib bering.
59. Kichik guruhlardagi dinamik jarayonlar va ularning rivojlanish qonuniyatlarini tushuntirib bering.
60. Inkulturatsiya va madaniy transmissiya tushunchalari: shaxs taraqqiyotidagi rolini yoritib bering.
61. Madaniyatning bola psixik rivojlanishiga ta’sirini tahlil qiling.
62. Bolalik davrining psixik rivojlanishiga ijtimoiy omillar ta’sirini tahlil qiling.
63. Turli etnomadaniy muhitlarda ijtimoiylashuv jarayonining o‘ziga xos kechishini tushuntirib bering.
64. Kauzal atributsiya jarayoni va ijtimoiy fikrlashdagi ahamiyatini tahlil qiling.
65. Ijtimoiy ustanovkalar: shakllanish, barqarorlik va o‘zgarish mexanizmlarini tahlil qiling.
66. Ijtimoiy rollar va ularning inson taraqqiyotidagi psixologik o‘rnini tushuntirib bering.
67. Oila haqidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanish jarayonlarini tushuntirib bering.
68. Ijtimoiy ta’sir mexanizmlarining shaxs tomonidan anglanish jarayonini tahlil qilib bering.

69. Ijtimoiylashuv institutlari: funksiyalari va o‘zaro aloqadorlig jihatlarini tushuntirib bering.

70. Ijtimoiylashuv sohalari: ta’lim, oila, ommaviy madaniyat va axborot muhitini tahlil qiling.

71. Ijtimoiylashuv bosqichlari va ularning psixologik xususiyatlarini tahlil qiling.

72. Liderlik va rahbarlik: psixologik mazmuni va farqlarini ko’rsating.

73. Liderlik vujudga kelishi haqidagi nazariy konsepsiyalarni tahlil qilib bering.

74. Liderlik turlari va boshqaruv uslublarining ijtimoiy-psixologik tahlilini yoritib bering.

75. Guruhiy qaror qabul qilish jarayonining psixologik mexanizmlarini tahlil qilib bering.

Talabgor quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Baholash mezonlari	**Maks. ball**
1. Fanni bilish darajasi	**30**
Asosiy nazariy bilimlar	15
Ixtisoslik bo‘yicha bilimlar	15
2. Tanqidiy fikrlash va tahlil	**25**
G‘oyalarni umumlashtira olish	13
Mantiqiy fikr va dalil keltirish	12
3. Nutq va taqdimot madaniyati	**20**
Tuzilishi va izchillik	10
Til va ifoda aniqligi	10
4. Savollarga javob berish sifati	**25**
Mazmun va aniqlik	15
Moslashuvchanlik va mulohaza	5
Xotirjamlik, professional yondashuv	5
UMUMIY BALL	**100**

FOYDALANISHGA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasining “Ta`lim to’g’risida”gi qonuni. – Toshkent. O’zbekiston, 2020

2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, «O’zbekiston», 2016 yil, 56 bet.

3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, «O’zbekiston», 2017 yil, 48 bet.

4. Ananko A.A. Matematicheskiye metod v psixologii. Metodicheskiye ukazaniya. - Omsk, OmGTU, 2005. - 64 s.

5. Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiya: Uchebnik dlya vsshix uchebnx zavedeniy / G.M. Andreyeva. - M.: Aspekt Press, 2012. - 363 c.
6. Andriyenko YE.V. Sotsialnaya psixologiya: Uchebnoye posobiye dlya stud. uchrejdeniy vssh. prof. obrazovaniya / YE.V. Andriyenko; Pod red. V.A. Slastenin. - M.: ITS Akademiya, 2012. - 264 c.
7. Aronson E., Uilson T., Eykert R. Sotsialnaya psixologiya. Psixologicheskiye zakoni povedeniya cheloveka v sotsiume. – SPb.:PRAYM-YEVROZKAK, 2004- 560 s.
8. Belinskaya YE.P., Tixomandritskaya O.A. Sotsialnaya psixologiya lichnosti: Uchebnoye posobiye dlya vuzov. – M.:Aspekt press, 2001. -301 s.
9. Bkov S.V. Sotsialnaya psixologiya normativnogo povedeniya v organizatsii. - Samara: Samar. gumanit. akad., 2008. - 116 s.
10. Beron R., Kerr N., Miller N. Sotsialnaya psixologiya grupp: protsess, resheniya, deystviya. Monografiya. — SPb.: Piter, 2003. — 272 s.
11. Veraksa, N.YE. Sotsialnaya psixologiya: Uchebnik dlya stud. uchrejdeniy vssh. prof. obrazovaniya / N.YE. Veraksa, A.N. Veraksa. - M.: ITS Akademiya, 2011. - 224 c.
12. Vorobeva I.V., Krujkova O.V. Psixologiya vandalnogo povedeniya. Monografiya. - Yekaterinburg: Uralskiy gos. pedagogicheskiy un-t, 2014. — 322 s.
13. Geraskina, M.G. Sotsialnaya psixologiya: Uchebnoye posobiye dlya studentov vuzov / A.N. Suxov, M.G. Geraskina, A.M. Lafutkin; Pod red. A.N. Suxov. - M.: YUNITI-DANA, 2011. - 615 c.
14. Yenikeyev M.I. Obщaya i sotsialnaya psixologiya: Uchebnik / M.I. Yenikeyev. - M.: Norma, NITS INFRA-M, 2013. - 640 c.
15. Yefimova N.S. Sotsialnaya psixologiya: Uchebnoye posobiye / N.S. Yefimova. - M.: ID FORUM, NITS INFRA-M, 2013. - 192 c.
16. Juravlev A.L. Sotsialnaya psixologiya rossiyskogo predprinimatelstva: Kontseptsiya psixologicheskix otnosheniy / A.L. Juravlev, V.P. Poznyakov. - M.: IP RAN, 2012. - 480 c.
17. Juravlev A.L. Sotsialnaya psixologiya: Uchebnoye posobiye / A.L. Juravlev, V.A. Sosnin, M.A. Krasnikov. - M.: Forum, 2011. - 496 c.
18. Kalinin S.I. Kompyuternaya obrabotka dannx dlya psixologov. SPb.: «Rech», 2002. – 136 s.
19. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: darslik. –T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2012. – 172 b.
20. Krsko V.G. Sotsialnaya psixologiya. Kurs lektsiy: Uchebnoye posobiye / V.G. Krsko. - M.: Vuzovskiy uchebnik, INFRA-M, 2012. - 256 c.
21. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya / D. Mayers; Per. s angl. Z.S. Zamchuk. - SPb.: Piter, 2013. - 800 c.
22. Nasonova YU.V. Statisticheskiye metod v psixologii. Uchebnoye izdaniye. Uchebno-metodicheskiy kompleks. Vitebsk: UO «VGU im. P. M. Masherova", 2010. – 237 s.
23. Platonov YU.P. Etnicheskaya psixologiya. – SPb.: «Reche», 2001.-320 s.
24. Sagalakova O.A., Truyevtsev D.V. Sotsialnye straxi i sotsiofobii: Monografiya. - Tomsk: Izd-vo Tom. un-ta, 2007. – 210 s.
25. Sidorenkov A.V. Sotsialnaya psixologiya malx grupp: Uchebnoye posobiye / A.V. Sidorenkov. - Rn/D: Feniks, 2012. - 381 c.
26. Sosnin V.A. Sotsialnaya psixologiya: Uchebnik / V.A. Sosnin, YE.A. Krasnikova. - M.: Forum, 2013. - 336 c.
27. Stefanenko T.G. Etnopsixologiya: Uchebnik dlya vuzov/ T.G.Stefanenko. - 3-ye izd. ispr. i dop.- M.: Aspekt press, 2003.- 368 s.
28. Tsvetkova L.A. Sotsialnaya psixologiya narkotizma v studencheskoy srede / L.A. Tsvetkova. - SPb.: SPbGU, 2012. - 256 c.
29. Chaldini R. Psixologiya vliyaniya.- SPb.: Pater, 2008.- 288 s.

30. Shuvanov V.I. Sotsialnaya psixologiya upravleniya: Uchebnik dlya studentov vuzov / V.I. Shuvanov. - M.: YUNITI-DANA, 2013. - 463 c.
31. Ismoilova N. Ijtimoiy psixologiya. "O`zb.faylasuflari milliy jamiyati" T-2013.
32. Barotov Sh.R. Ijtimoiy psixologiya. - Toshkent. Darslik.: “Navro’z” nashriyoti, 2020. – 401 bet.
33. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. - Toshkent. Darslik.: “Navro’z”. 2024. – 513 б.